



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

**RANGLI METALLURGIYA KORXONALARI UCHUN
SANITARIYA QOIDALARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0225-07- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2007



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME‘YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi**

_____ B.I. NIYAZMATOV

3-aprel 2007-yil

**RANGLI METALLURGIYA KORXONALARI UCHUN
SANITARIYA QOIDALARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0225-07- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2007

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Sanitariya qoidalarini rangli metallurgiya yangi korxonalarini loyihalashtirishda, mavjud korxonalarni qayta qurishda va ularni ishlatishda majburiy hisoblanadi. Qoidalar rux, qo'rg'oshin, mis, nikel, kobalt, volfram, magniy va uning qotishmalari, titan, molibden, glinozem, ftor tuzlari, elektrod massasi, birlamchi alyuminiy, ikkilamchi alyuminiy, oltin ajratib olish fabrikalari (OAF), platina va platinoidlar, qalay va uning qotishmalari, nodir va nodir yer metallari (NEM) ishlab chiqarishlariga taalluqlidir.

1.2. Sanitariya-gigiyena talablarini belgilovchi amaldagi tarmoq xavfsizlik qoidalarini, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlar ushbu Sanitariya qoidalariga muvofiq lashtirilib, mos holga keltirilishi lozim.

1.3. Ushbu qoidalar talablarini bajarish quyidagilar uchun majburiydir: tarmoq idoralari, konsernlar, qo'mitalar, davlat, kooperativ, aksiyadorlik va boshqa korxonalar (qurilayotgan, qayta qurilayotgan, faoliyat yuritayotgan); korxonalarni qurish/qayta qurish loyihalarini ishlab chiquvchi va tasdiqlovchi loyihalash, konstruktorlik, texnologiya institutlari va tashkilotlari; rangli metallurgiya korxonalari jihozlarini ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar.

1.4. "Sanitariya qoidalarini" talablarining bajarilishi uchun korxona ma'muriyati javob beradi.

2. SANOAT MAYDONINING BOSH REJASI VA HUDUDIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

2.1. Korxonalarni qurish uchun sanoat maydonini tanlash, unda sexlarni joylashtirish, binolar va inshootlar orasidagi masofa, jihozlar va hududni obodonlashtirish, sanitariya-himoya zonasini belgilash "Sanoat korxonalarining bosh rejalarini" QMQ va ushbu Sanitariya me'yorlariga muvofiq bo'lishi shart.

2.2. Sanitariya-muhofaza zonasining o'lchamlari me'yoriy hujjatlarga asosan qabul qilinadi hamda sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari va Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bilan kelishilgan holda, mazkur hududning ifloslanish darajasini inobatga olib, korxonalar chiqindilaridagi zararli moddalarning tarqalishini hisoblash orqali belgilanadi.

2.3. Ftorli tuzlar ishlab chiqarishda va oltin ajratib olish fabrikalarida ochiq maydonchalarga o'rnatiladigan bak jihozlari ishlab chiqarish va yordamchi binolarning shamolga teskari tomonida, bino va inshootlarning ochiladigan tuynuklaridan kamida 25 metr masofada joylashtirilishi lozim.

2.4. Tarkibida I va II xavf sinfi moddalari hamda radioaktiv moddalar mavjud bo'lgan xomashyo materiallarini qayta ishlash amalga oshiriladigan

binolar va inshootlar, shuningdek moy va mazut saqlash omborlari ishlab chiqarish kanalizatsiyasiga oqib tushishi uchun qiyalik bilan ta'minlangan chetki yo'lakka ega bo'lishi kerak.

2.5. Korxona hududini mexanizatsiyalashtirilgan usulda tozalash va ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish nazarda tutilishi lozim.

3. ISHLAB CHIQARISH BINO VA INSHOOTLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

3.1. Ishlab chiqarish binolari va inshootlarining hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlari "Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish binolari. Loyihalashtirish me'yorlari" QMQ talablari hamda ushbu sanitariya me'yorlariga muvofiq bo'lishi lozim.

3.2. Ajralib chiqayotgan zararli moddalarni hisobga olgan holda quyidagi ishlab chiqarish uchastkalarining o'zaro ta'siri istisno etilishi kerak:

- barcha ishlab chiqarishlarda - xomashyo materiallari omborxonalari va ularni tayyorlov qayta ishlash uchastkalarida, materiallarni maydalash bilan bog'liq barcha jarayonlarda, kuydirish, toblash, qizdirish, aglomeratsiya, eritish (barcha turdagi eritishlar), gidrometallurgiya, gidrokimyo, elektroliz, tozalash sexlarida; eritmalarni tayyorlash va tozalash bo'limlarida; reagentlarni tayyorlash va saqlash; flotatsiya, elektrolit tayyorlash, tanlab eritish, quyuqlashtirish, filtrlash, quritish, cho'michlarni qayta ishlash va ta'mirlash, eritish pechlari gumbazlarini ta'mirlash, olinadigan uskunarlar va ajraladigan kommunikatsiyalarni tozalash va yuvish, qadoqlash bo'limlarida, tayyor mahsulotlar omborxonalarida, sanoat oqovalarini zararsizlantirish, chang-gaz tozalash, quritish pechlarini ta'minlovchi tutun so'rgichlar, vakuum-nasos bo'limlari, o'ziyurar texnika va elektrokarlar parki, o'lchov-nazorat asboblari xonalari, boshqaruv pulti, dam olish va ovqatlanish joylari;

- ikkilamchi alyuminiy ishlab chiqarishda - quritish, regeneratsiya va flyuslarni tayyorlash bo'limlari, shlakni saqlash;

- rux ishlab chiqarishda - anod va katodlarni tayyorlash, drosslarni qayta ishlash, zmeeviklarni yuvish va payvandlash jarayonlari;

- misni olovli tozalashda - anod va vayerbars bo'limlari;

- mis elektroliz sexlarida - shlamni qayta ishlash bo'limlari;

- kobalt sexlarida - siniq bo'laklar va shlakni qayta ishlash jarayonlari, xlorini taqsimlash qurilmalari;

- oltin ajratib olish fabrikalarida - sorbsiya, amalgamatsiya qayta ishlashlarini tiklanish, retort pechlar bo'limlari, oltin cho'kmasiga kislotali ishlov berish, yetiltirish, shamlar tayyorlash, reagentli idishlar.

Nodir va nodir yer metallari (NEM) ishlab chiqarishda - NEMni ajratish, gidrometallurgiya sexlari; NEMni metallotermik olish, NEM xloridlarini olish sexlari va ushbu sexlardagi barcha bo'limlar va uchastkalar.

3.3. Sezilarli darajada ortiqcha issiqlik ajralib chiqadigan xonalarning tomlarida shamol ta'sir qilmaydigan havo almashinuv fonarlari o'rnatilishi lozim.

3.4. Ftor birikmalari ajralib chiqadigan ishlab chiqarish xonalaridagi yorug'lik tushiradigan joylarni to'ldirish uchun, shuningdek, boshqa sexlarda ularni ftor ishlab chiqarish joylari yaqinida joylashtirishda ftor ta'siriga chidamli yorug'lik o'tkazuvchi materiallar qo'llanilishi kerak.

3.5. Zararli moddalar, issiqlik ortiqcha ajraladigan, shuningdek issiqlik nurlanishi va shovqin darajasi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish xonalarida joylashgan, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar doimiy turadigan asbob-uskunalarini masofadan kuzatish va boshqarish pultrlari, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun belgilangan sanitariya-gigiyena sharoitlarini (tovush izolyatsiyasi, konditsiyalangan havo berish va hokazo) ta'minlaydigan qurilmalar bilan jihozlangan alohida xonalarda yoki maxsus kabinetlarda joylashtirilishi lozim.

4. TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA JIHOZLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

4.1. Texnologik jarayonlarni tashkil etish va ishlab chiqarish uskunalari "Texnologik jarayonlarni tashkil etishning sanitariya qoidalari va ishlab chiqarish uskunalarga qo'yiladigan gigiyenik talablar", hamda mehnat xavfsizligi standartlari tizimining GOST talablariga muvofiq bo'lishi shart.

Radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nurlanishning boshqa manbalari bilan ishlarni tashkil etish va o'tkazishda ushbu Qoidalardan tashqari, "Radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nurlanishning boshqa manbalari bilan ishlashning asosiy sanitariya qoidalari", "Radiatsion xavfsizlik me'yorlari", shuningdek "Nodir metallar sanoati korxonalarida tabiiy radioaktiv moddalar bilan ishlashning sanitariya qoidalari"ga qat'iy rioya qilish zarur.

Rangli metallurgiya korxonalarining zaharli chiqindilarini ko'mish va zararsizlantirish poligonida yig'ish, tashish, topshirish va qabul qilish ishlarini tashkil etish va olib borishda "Qayta ishlatib bo'lmaydigan sanoat chiqindilarini ko'mish poligonlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanishning sanitariya qoidalari"ga rioya qilish lozim.

4.2. Barcha yangi texnologik jarayonlar ishlab chiqarishga joriy etilishidan oldin tajriba-sanoat sinovlari bosqichida mehnat gigiyenasi va atrof-muhit muhofazasi nuqtai nazaridan baholanishi shart.

4.3. Ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish faqat mehnatning normal sanitariya-gigiyena sharoitlarini va atrof-muhit muhofazasini ta'minlovchi choratadbirlar amalga oshirilgandan so'ng ruxsat etiladi.

4.4. Mehnat jarayonlarini loyihalashda jismoniy yuklamalarni cheklash kerak. Ular optimal ko'rsatkichlarga mos kelishi va 0141-93-sonli SanQvaMga muvofiq "jismoniy mehnatda organizm kuchlanishining fiziologik me'yorlari" bo'yicha ruxsat etilgan chegaraviy qiymatlardan oshmasligi lozim. Shu bilan birga, mehnat va dam olishning oqilona tartiblarini joriy etish zarur.

4.5. Texnologik sharoitlar imkon bergan joylarda changlanuvchi materiallarni to'kish joylarida gidrochangsizlantirishni ko'zda tutish lozim. Sirt faol chang namlovchi moddalar va namlik adsorbentlarini qo'llash sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari bilan kelishilgan bo'lishi shart.

4.6. Tozalash qurilmalaridan changni tushirish va uni tashish mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi va chang hosil bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

4.7. Qoplamalar va so'rg'ichlar tuzilishi uskunaning ajralmas qismi bo'lishi va unga xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash qulayligini ta'minlashi lozim.

4.8. I - III xavflilik sinfidagi zararli moddalarni o'z ichiga olgan eritmalarini tayyorlash jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan yoki avtomatlashtirilgan bo'lishi va aspiratsiya sharoitlarida bajarilishi kerak.

4.9. Reagentlarni tayyorlash va qo'llash uchastkalarida quyidagi mahalliy so'rg'ichlarni nazarda tutish zarur:

- reagentlar solingan idishlarni ochish va bo'shatish kameralaridan;
- reagent ta'minlagichlari, reaktorlar va yig'ish idishlaridan;
- sanoat oqovalarini zararsizlantirish bo'limidagi zararsizlantirish uskunalaridan.

4.10. Flotatsiya texnologik jarayonini tashkil etishda quyidagilarni ta'minlash lozim:

- flotatsion mashinalarning ochiq yuzalarini imkon qadar kamaytirish;
- zaharli va tez parchalanuvchi flotoreagentlarni kam zaharli va barqaror moddalar bilan almashtirish;
- flotomashinalar novlarining chetlaridan ko'pik va pulpaning toshib ketishini, flotoreagentlar eritmalarining ta'minlagichlardan reagent o'tkazgichlarining qabul qilish voronkasiga, flotomashinalar va bak uskunalaridan pulpa va tindirilgan suyuqlikning polga to'kilishini oldini olish;
- flotomashina novlaridan suv oqimi bilan yuvganda ko'pik sachrashini oldini olish.

4.11. Eritma idishlari va sarflash baklarini tozalash, shuningdek reagentlar uchun idishlarni yuvish mexanizatsiyalashtirilgan usulda amalga oshirilishi shart;

- yuvindi suvlar ishlab chiqarish kanalizatsiyasiga yo'naltirilishi kerak.

4.12. I - III xavflilik sinfiga mansub zararli moddalarni o'z ichiga olgan pulpani filtrlash uchun filtr-presslar va vakuum-filtrlar aspiratsiyalanuvchi qoplamalar bilan jihozlanishi lozim.

4.13. Reagent bo'limlari va drenaj nasoslarini ishga tushirish sarf baki va drenaj zumpfidagi suyuqlik sathlariga qarab avtomatik tarzda amalga oshirilishi lozim.

4.14. "Qoldiqlar"ni zararsizlantirish neytrallash pachuklarida bajarilishi kerak. I-II xavflilik sinfiga mansub moddalarni zararsizlantirish faqat aspiratsiya, nazorat va masofadan boshqarish asboblari bilan jihozlangan germetik uskunalarda amalga oshirilishi shart.

4.15. Quruq konsentratlarni tushirish, elash va shixtalash jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi va ishlab chiqarish xonalariga chang hamda gazlarning chiqib ketishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

4.16. Issiq aglomerat va qaytimni sovutish va namlash maxsus qurilmalarda bajarilishi lozim. Kelayotgan aglomerat va qaytimning harorati hamda miqdoriga qarab, namlash uchun suv berishni avtomatik rostlashni ko'zda tutish zarur. Sovutgichlar ichida hosil bo'lgan bug' va changlar mahalliy so'rish ventilyatsiyasi yordamida chiqarib yuborilishi va keyinchalik tozalanishi kerak.

4.17. Chang qoplari oqadigan boshmoqlar qoplamalarini aspiratsiyalash uchun aglomeratsion mashinalar kollektorida texnologik vakuumdan foydalanilganda, ushbu qoplamalarning havo quvurlaridagi klapanlarni chang qoplari zatvorlari bilan blokirovka qilishni ko'zda tutish lozim. Blokirovka chang chiqarishdan oldin so'rg'ichni yoqishni, chang qopini bo'shatish to'xtatilgandan keyin esa uni o'chirishni ta'minlashi kerak.

4.18. Pishirish uchastkalaridagi palletlar lentasi, yuqoridan pastga puflanadigan aglomeratsiya mashinalarining dum qismlari va bo'sh shoxobchalari tashqi havoni qopqoq ostiga yetkazib beradigan germetik issiqlik izolyatsiyalangan ajraladigan qopqoqlar bilan jihozlangan bo'lishi shart.

4.19. Aglomeratni va qaytarilgan mahsulotni yopiq transport vositalari (vibrokonveyerlar, pnevmotransport, yopiq qobiqdagi skipli ko'targichlar va boshqalar) yordamida tashish lozim.

4.20. Quyish agregatlari mexanik chushka yotqizgichlar bilan to'liq jihozlangan bo'lishi kerak.

4.21. Kuydirish pechlaridan issiq kuyindini tashish faqat yopiq usulda amalga oshirilishi shart.

4.22. Aylanma pechlarning issiq kallaklar va chang kameralari bilan ulanish joylari, aylanma pechlardan sovutgichlarga materiallarni qayta yuklash

tugunlari, shuningdek, eritish pechlarining futerovkasi orqali o'tadigan gaz yo'llari va quvurlar joylashgan qismlar puxta zichlangan bo'lishi lozim.

4.23. Ruda va konsentratlarni eritish uchun mo'ljallangan elektr pechlaridan chiqadigan gazlar albatta tozalanishi kerak.

4.24. Ruda va konsentratlarni erituvchi elektr pechlarining gumbazi va harorat choklari germetik holda yopilgan bo'lishi shart.

4.25. Shaxta pechlarining yuklash qurilmalari yuklash jarayonida chang va gazlarning chiqib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

4.26. Konvertorlar metall chiqindilarini mexanizatsiyalashgan holda yig'ish va chiqarib tashlash uchun egovlar va maxsus moslamalar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

4.27. Barcha foydalaniladigan bak jihozlari quyidagicha bo'lishi kerak:

- eritmalarining to'lib ketishini avtomatik ravishda oldini oluvchi asboblardan ta'minlangan;

- sochiluvchan materiallarni mexanizatsiyalashgan holda yuklash qurilmalari bilan jihozlangan;

- qopqoqlar bilan yopilgan va samarali mahalliy so'rg'ichlar bilan ta'minlangan;

Bak qurilmalaridan eritmalarini uzatish va chiqarish faqat quvurlar orqali amalga oshirilishi shart.

4.28. I-III xavflilik sinfiga mansub zararli moddalarni o'z ichiga olgan suyuqliklar, suspenziyalar, eritmalar va aralashmalarni tashish uchun mo'ljallangan nasoslar salnaksiz, yon tomondan zichlangan bo'lishi lozim.

4.29. I-III xavflilik sinfiga mansub zararli moddalarni o'z ichiga olgan eritmalarini ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tashish yopiq quvurlar orqali amalga oshirilishi shart. Bunday eritmalarini ochiq oqim bilan uzatish man etiladi, tarnovlardan foydalanish taqiqlanadi.

4.30. Ta'mirlashdan oldin tarkibida zaharli moddalar mavjud bo'lgan uskunalardan undagi materiallardan tozalanishi va neytrallashtirish moddalari bilan yuvilishi zarur.

4.31. Bak qurilmalari, bug'latish va quvurli apparatlar, avtoklavlar, reaktorlarni tozalash ishlari mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi va samarali mexanik shamollatish ostida bajarilishi kerak.

4.32. Elektroliz vannalari mahalliy so'rma shamollatish tizimlari bilan jihozlanishi lozim.

4.33. Quvurlar orasidagi bo'shliqdan va sovutgich devorlaridan organik cho'kindilar va to'planmalarni olib tashlash uchun jismoniy kuch sarflashni va ishchilarning teri hamda kiyimlarining zararli moddalar bilan ifloslanishini istisno etadigan usullarni qo'llash zarur.

4.34. Barcha o'ziyurar mashinalar havoni konditsiyalash va zararli kimyoviy moddalardan tozalash qurilmalari bilan jihozlangan yopiq kabinalarga ega bo'lishi shart. Kran kabinalari "Kran haydovchilarining kabinalarini tuzish va jihozlash bo'yicha sanitariya qoidalariga"ga mos kelishi lozim. Dizel va karbyuratorli dvigatellar bilan jihozlangan mashinalarning chiqindi gazlarini zararsizlantirish choralari ko'rilishi kerak.

4.35. Birlamchi alyuminiy ishlab chiqarishda:

4.35.1. Yangidan qurilayotgan va qayta jihozlanayotgan zavodlarda pekoks kompozitsiyalaridan smolasimon moddalar ajralib chiqishini istisno qiladigan elektroliz qurilmalari turi qo'llanilishi lozim.

4.35.2. Barcha turdagi elektroliz qurilmalari qoplama va mahalliy so'rish ventilyatsiyasi bilan jihozlangan bo'lishi shart.

4.35.3. "Ko'mir" ko'piklarini olib tashlash, cho'kmani tortish, anod effektlarini bartaraf etish kabi operatsiyalarni qo'lda bajarish taqiqlanadi.

4.36. Ikkilamchi alyuminiy ishlab chiqarishda:

4.36.1. Yopiq vagonlar va avtofurgonlardan alyuminiy qirindisi hamda yirik o'lchamli metall chiqindilarni tushirish, shuningdek, saralash konveyerlarida metall chiqindilarni saralash jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi lozim.

4.36.2. Alyuminiy qirindilarini (zavod ichida) yopiq transport vositalari yordamida tashish zarur.

4.36.3. Reverberatsiya pechlarining muldozalash mashinalari germetik issiqlik izolyatsiyalangan kabinalar bilan jihozlangan bo'lishi shart.

4.36.4. Alyuminiy qirindilarini quritish uchun, odatda, oksidlanishsiz jarayonlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

4.36.5. Elektr induksion pechlarning tigellarini va quyish cho'michlarini ta'mirlash alohida xonalarda amalga oshirilishi lozim.

4.37. Elektrod mahsulotlari va anod massasi ishlab chiqarishda pekni pek qabul qilgichlarga yetkazib berish, qoida tariqasida, termotsisternalarda amalga oshirilishi kerak.

4.38. Yangi qurilayotgan va qayta tiklashga mo'ljallangan zavodlarda texnik uglerod ishlab chiqarishda ho'l donadorlash usulidan foydalanish zarur.

4.39. Qo'rg'oshin ishlab chiqarishda:

4.39.1. Qo'rg'oshin quymalarini quyish vaqtida tozalash jarayoni mexanizatsiyalashtirilishi lozim.

4.39.2. Qora qo'rg'oshinni tozalash jarayonida o'choqlar, sifonlar, shlak tuynuklarini ochish va yopish, shaxta pechlari furmalarini tozalash, shlikerlar va kumushsimon ko'piklarni olib tashlash jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi kerak.

4.39.3. Shaxtali pechlar suyuqlanmaning ruxsat etilgan sathidan oshib ketishi haqida avtomatik signalizatorlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

4.39.4. Shaxtali pechlarning furma maydonchasi furma sathidan 1,2 m pastda joylashishi kerak.

4.40. Rux ishlab chiqarishda:

4.40.1. Rux kuyindisini tanlab eritish va pulpani quyultirish jarayonlari masofadan boshqarilishi kerak.

4.40.2. Rux changini agitatorlarga tushirish, filtr-presslarni qismlarga ajratish va yig'ish, katod ruxini ajratib olish, qo'rg'oshin anodlarini shlakdan tozalash va elektroliz vannalaridan shlakni chiqarish, idishlar va apparatlar yuzasini shlamdan tozalash va shlamni to'kish bo'yicha qo'lda bajariladigan operatsiyalar taqiqlanadi.

4.41. Mis ishlab chiqarishda:

4.41.1. Yallig' qaytaruvchi pechlarga konvertor shlakini quyish uchun tarnovlar ularni tozalash davrida tushirish imkonini beruvchi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

4.41.2. Kuydirish pechlaridan kuyindini tushirish, shaxtali pechlar furmalarini tozalash, eritish pechlarining yuklash voronkalarini tozalash, shpur teshiklari, sifonlar, shlakli derazalarni ochish va yopish (oqimni to'xtatish), tarnovlar va kovshlarni eritish mahsulotlarining ichki yuzasida qotib qolgan qobiqlardan tozalash, konteyner furmalarini tozalash, sozlash mashinasi qoliplaridan xomaki misni olish va tashish, anod shlakini olib tashlash, qiyshaygan anod pechlarining novini ochish, anodlar va vayerbarslarga ishlov berish, qoliplar va quyish mashinalariga ohak suti quyish, kislorodsiz mis quymalarni standart o'lchamlargacha tashish va kesish, o'tga chidamli loy, qotib qolgan shteynning katta qobiqlarini tashish, mis asoslari va katodlarni tayyorlash, katod misiga ishlov berish, uni tashish va tayyor mahsulotni paketlash, shuningdek, vannadan shlamni tushirish, anod qoldiqlarini yuvish va paketlash, misni qoliplarga quyish kabi qo'l operatsiyalarini bajarish taqiqlanadi.

4.42. Kobalt ishlab chiqarishda:

4.42.1. Tarkibida reaksiyaga kirishmagan xlor bo'lgan eritmalarni filtrlashga yuborish taqiqlanadi.

4.42.2. Xlor o'tkazgichdan eritmaga xlorni uzatishni xlarning yaxshiroq taqsimlanishi va utilizatsiyasini ta'minlaydigan usullar bilan amalga oshirish kerak.

4.42.3. Eritmalarni mexanik aralashtiruvchi reaktorlardan foydalanish lozim. Havo bilan aralashtirish faqat reagent sifatida havodan foydalanish texnologik jihatdan zarur bo'lgan hollardagina ruxsat etiladi.

4.42.4. Asosiy jarayonlar uchun faqat germetik o'zi yuklanuvchi filtrlar qo'llanilishi shart. Ramali filtr-presslarni o'rnatish taqiqlanadi.

4.42.5. Sulfat kislotasi va uning eritmalarini konsentratsiyasi 100 g/l dan yuqori bo'lganda dozatorlardan uskunaga uzatish statsionar kommunikatsiyalar orqali amalga oshirilishi lozim. Kommunikatsiyalarning germetikligi muntazam ravishda tekshirib turilishi kerak.

4.42.6. Kobalt gidrooksidini kamerali pechlarga qo'lda yuklash, aralashtirish va tushirish operatsiyalari taqiqlanadi.

4.42.7. Eritish xonalarida shlaklarni maxsus idishlarga yig'ish lozim.

4.42.8. Katod yacheykalarini belgilangan ish joylaridan tashqarida tayyorlash va ta'mirlash man etiladi. Katod yacheykalarini yelimlash joylari va ularni quritish uchun stellajlar yopqichlar hamda so'ruvchi ventilyatsiya bilan jihozlanishi shart.

4.42.9. Hidroajratish, maydalash, yanchish, magnitli separatsiyalash, futerovka va shlaklarni sindirish hamda tovar kobalt oksidini idishlarga joylashtirish jarayonlarining barchasi mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi kerak.

4.43. Molibden va volfram ishlab chiqarishda:

4.43.1. Natriy sulfid yordamida eritmalarini og'ir metallardan tozalash germetik uskunalarda bajarilishi shart.

4.43.2. Cho'kmalarni quritish, maydalash va quvurli pechlarga kuydirish uchun uzatish, presslash uchun mo'ljallangan kukunni tortish, presslarga solish, pressqolipni yig'ish va qismlarga ajratish kabi qo'l operatsiyalari taqiqlanadi.

4.43.3. Kukunni plastifikatorlar (glitserin, spirt) bilan aralashtirishni havo tortuvchi pana joylarda o'tkazish zarur.

4.44. Oltin qazib olish fabrikalarida:

4.44.1. Oltinni ajratib olishda simob metalidan foydalanishga faqat uni zaharsiz birikmalar bilan almashtirish texnologik jihatdan imkonsiz bo'lgan hollardagina ruxsat etiladi.

4.44.2. Suv aylanishining yopiq sikli bilan oltinni ajratib olishning sorbsion-filtrsiz texnologiyasiga afzallik berish lozim.

4.44.3. Bosh namunalar tahlili germetik elaklarda o'tkazilishi shart. Elash jarayoni mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi va so'rish shkafida amalga oshirilishi kerak.

4.44.4. Texnologik sxemaning barcha qurilmalarida sianli eritmalarining himoyaviy ishqoriylik konsentratsiyasi texnologiya bo'yicha imkon qadar yuqori darajada o'rnatiladi.

4.44.5. Maydalash bo'limlarida rudani namlash uchun tarkibida sianli birikmalar mavjud bo'lgan oltinsizlantirilgan eritmalarini qo'llash man etiladi.

4.44.6. Fabrikalarni loyihalash va qayta qurish chog'ida sianli bo'tqani filtrlash uchun avtomatlashtirilgan boshqaruvli vakuum-filtrlarni ko'zda tutish lozim.

4.44.7. Sianplavni eritish uchun idishlar, aralashtirgichlar, ishchi, oltinsizlantirilgan va aylanma eritmalarini yig'ish idishlari (filtrlash romlari bilan jihozlangan tindirgich idishlardan tashqari), sianplavlarning diskli (cho'michli) uzatgichlari qopqoqlar bilan yopilgan va mexanik so'ruvchi ventilyatsiyaga ulangan bo'lishi shart.

4.44.8. Tarkibida oltin mavjud mahsulotlarga ishlov berish uchun pechlar mexanik so'rish va issiqlik izolyatsiyali so'rish shkaflari tipidagi yopqichlarga ega bo'lishi, elektr yoyli pechlar esa shovqin va elektr yoyining kuchli yorug'ligidan ishonchli himoyaga ega bo'lishi kerak.

4.44.9. Pachuklar va ustunlarning drenaj to'rlarini tozalash ishlari mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi hamda ishchilar terisi va kiyimlarining texnologik eritmalar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

4.44.10. Sianlash jarayonlari va kislotali muhitda kechadigan texnologik jarayonlarni bir xonada joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Qatronni pulpadan yuvish ustunlari sorbsiya bo'limlarida joylashtirilishi lozim.

4.44.11. Sorbentni sorbsiyalash, yuvish va qayta tiklash, shuningdek tovar regeneratini elektroliz qilish jarayonlari avtomatlashtirilgan bo'lishi shart.

4.44.12. Yuvish va qayta tiklash ustunlarining tuzilishi hamda ularga xizmat ko'rsatishni tashkil etish shunday bo'lishi kerakki, ularda ko'zdan kechirish oynalarini o'rnatish zarurati bo'lmasin.

4.44.13. Cho'ktirish (qayta cho'ktirish) elektrolizatorlari kabina turidagi gaz so'rg'ichli qoplama bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

4.44.14. Qatronni boshqa tarkibli muhitli ustunga ko'chirish jarayonida (ishqoriy muhitdan kislotali muhitga va aksincha) qatron eritmadan to'liq ajralishi kerak. Eritmalarni qatron bilan birga tashish taqiqlanadi.

4.44.15. Texnologik jarayon va uskunalarga simobni kiritish avtomatik ta'minlagichlar va dozatorlar yordamida amalga oshirilishi shart.

4.45. Nodir yer metallari (NYM) ishlab chiqarishda:

4.45.1. NYMni kaskadli ajratishda qopqoq va mahalliy so'rish tizimi bilan jihozlangan yopiq turdagi vertikal ekstraktlardan foydalanish lozim.

4.45.2. Tizimni NYMni ion almashinuvi orqali ajratish uchun reagentlar bilan to'ldirish va eritmalarini to'kish avtomatik tarzda amalga oshirilishi kerak.

4.45.3. Reaktor va cho'ktirish hovuzlariga ammiakni ochiq usulda yuborish taqiqlanadi.

4.45.4. Nodir yer metallar (NEM) cho‘kmalarini filtrlashni mexanik tarzda olib tashlash va ularni germetik kommunikatsiyalar orqali kuydirish pechlariga uzatish qurilmalari bilan jihozlangan barabanli filtrlarda amalga oshirish lozim.

4.45.5. NEM birikmalarining cho‘kmalarini filtrlash uchun nutch-filtrlardan foydalanilganda, ular mahalliy so‘rg‘ichli germetik qopqoqlar bilan jihozlangan cho‘ktirish hovuzlari ichiga joylashtirilishi kerak.

4.45.6. Tuz qoldiqlarini tushirish va nutch-filtrlarni olish jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan bo‘lishi shart.

4.45.7. Filtr-presslarning cho‘kmalarini olish va to‘qimalarini tozalash tuzlarni mexanik tarzda olib tashlash va ularni keyingi ishlov berish uchun uzatishni ta‘minlaydigan maxsus qurilmalarda amalga oshirilishi lozim.

4.45.8. NEM xlorid eritmalarini bug‘latish uchun ishlatiladigan reaktorlar germetik bo‘lishi shart.

4.45.9. NEM tuzlari kukunlarini kuydirish materiallarni mexanizatsiyalashtirilgan yuklash va tushirish qurilmalari bilan jihozlangan, elash uskunalari bilan germetik bloklangan o‘tuvchi turdagi aylanma pechlarda amalga oshirilishi lozim.

4.45.10. Xloridlarni quritishni mexanizatsiyalashtirilgan yuklash va tushirish qurilmalari bilan jihozlangan hamda elash uskunalari bilan blokirovka qilingan pechlarda amalga oshirish zarur.

4.45.11. Tayyor kukunlarni ajratishni kuydirish pechlarining bo‘shatish qismlariga va bunker-to‘plagichlarga germetik ulangan havo klassifikatorlarida amalga oshirish lozim.

4.45.12. Tasniflagichlar tizimiga material va havo oqimini yetkazib berishda tizim ichida manfiy bosim hosil qilishni hisobga olish lozim. Bu sex xonasiga zich bo‘lmagan joylar orqali chang kirishiga to‘sqinlik qiladi.

4.45.13. Pechlarning tuynuklari kamera-shlyuzlar va yopiq transportyorlar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Bular kukunli tigellarni pechga mexanik tarzda uzatishni ta‘minlaydi va ishchilarga nurlanish ta‘sirini bartaraf etadi.

4.45.14. Tigellarni sovitish uchun pechlardan tushirish jarayoni mexanizatsiyalashtirilgan bo‘lishi shart.

4.45.15. Sovutish uchastkalari kukunlarni bunker-to‘plagichlarga mexanik tarzda tushirish uchun tigellarning o‘z-o‘zidan ag‘dariluvchi moslamalari bilan jihozlanishi lozim.

4.45.16. Kukunlarni o‘rtachalagichlarga yuklash va bo‘shatish yopiq shnekli qurilmalar yordamida amalga oshirilishi kerak. Bu qurilmalar yuklash va bo‘shatish lyuklariga germetik tarzda ulanishi shart.

4.45.17. Tayyor kukunlarni tortish va qadoqlash maxsus uchastkada avtomatik dozatorlar va qadoqlash mashinalari yordamida bajarilishi lozim.

5. ISITISH VA SHAMOLLATISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

5.1. Ishlab chiqarish va yordamchi xonalarni isitish va shamollatish 02.04.05-97-sonli QMQ “Isitish, shamollatish, havoni konditsiyalash” bobi talablariga mos kelishi kerak. Shuningdek, “Ish zonasi havosiga qo‘yiladigan umumiy sanitariya-gigiyena talablari” GOSTiga muvofiq mikroiklim parametrlari va havo tozaligini ta‘minlashi lozim.

5.2. “Nam” bo‘limli binolarda, tashqi havoning qishki hisob harorati va darvozalarning ochilish vaqtidan qat‘i nazar, yilning sovuq davrida ularga 5 karra hajmda isitilgan havo yetkazib beruvchi tamburlarni nazarda tutish lozim.

5.3. Sex xonalaridan texnologik maqsadlar uchun havo olinganida, qish mavsumida uning hajmi tashqaridan keltirilgan isitilgan havo bilan qoplanishi kerak.

5.4. Ikki va undan ortiq qavatli binolarda har bir qavatning shamollatish tizimi, quyi qavatlardan ko‘tarilayotgan zararli chiqindilarni hisobga olgan holda, alohida hisoblanishi lozim.

